



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini
2026-yil malaka oshirish kurslarida o‘qitish rejasini
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi 231-son hamda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-son qarorlari ijrosini ta’minlash hamda maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz malakasini oshirishni tashkil etish maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-son qaroriga ko‘ra texnikum direktori va uning o‘rinbosarlari uchun menejerlik o‘quv kursi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida, umumta’lim fanlari o‘qituvchilari uchun malaka oshirish kurslari A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va hududiy pedagogik mahorat markazlarida tashkil etilishi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi 231-son qarori bilan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining xodimlari uchun:

a) besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda o‘tkaziladigan malaka oshirish kurslari joriy qilinganligi;

b) umumiy o‘rta ta’lim maktablari va davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari uchun malaka oshirish kurslari menejerlik o‘quv kurslari uchun joriy etilgan tartib asosida – 144 soatlik ta’lim dasturlari bo‘yicha;

direktor o‘rinbosarlari, pedagog va mutaxassis kadrlar uchun malaka oshirish kurslari variativ va invariant modullar asosida – 100 soatlik ta’lim dasturlari bo‘yicha tashkil etilishi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Davlat maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini 2026-yilda malaka oshirish kurslarida o‘qitish rejasini 1-ilovaga muvofiq;

Davlat maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini 2026-yilda malaka oshirish kurslarida ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitish ko‘rsatkichlari 1.1-ilovaga muvofiq;

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ta'lim muassasalari xodimlarini 2026-yilda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarida o'qitish ko'rsatkichlari 1.2-ilovaga muvofiq;

Boshqa vazirliklar va idoralar tasarrufidagi ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarini 2026-yilda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarida o'qitish ko'rsatkichlari 1.3-ilovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda texnikumlar direktorlarini 2026-yilda menejerlik kurslarida o'qitish rejasi 2-ilovaga muvofiq;

Nodavlat maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari pedagog xodimlarining 2026-yilda malaka oshirish kurslarida o'qitish rejasi 3-ilovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorligiga nomzodlarni 2026-yilda menejerlik kurslarida o'qitish ko'rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilari, mutaxassis xodimlari va metodistlarini 2026-yilda malaka oshirish kurslarida o'qitish rejasi 5-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish va menejerlik kurslariga jalb qilish bo'yicha yo'riqnoma 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov), Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdullayeva), Pedagogik mahorat markazlari, vazirlik tasarrufidagi pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda - malaka oshirish ta'lim muassasalari):

malaka oshirish kurslarini tasdiqlangan reja bo'yicha hamda qonunchilikda belgilangan talablarga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etsin;

malaka oshirish kursi boshida bir kun kursning ochilish tadbirlarini alohida ishlab chiqilgan dastur asosida yuqori saviyada tashkil etish choralari ko'rsin;

malaka oshirish kurslarining ta'lim jarayonlariga tizimli ravishda zamonaviy metodlar va ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilishini ta'minlasin.

5. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (S.Shakirova), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari:

bir hafta muddatda malaka oshirish ta'lim muassasalari bilan birgalikda ushbu buyruq bilan tasdiqlangan reja va ko'rsatkichlarga muvofiq tasarrufdagi maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining 2026-yilda malaka oshirish rejalarini oylar kesimida tasdiqlasin;

o'n kun muddatda malaka oshirish kursiga yuboriladigan xodimlarning maktablar kesimida ro'yxati shakllantirilishi hamda tuman (shahar)lar kesimida tasdiqlanishini ta'minlasin;

har oy malaka oshirishga yuboriladigan rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarning tasdiqlangan ro'yxatini, malaka oshirishga yuborish bo'yicha

buyruqlarni kamida 20 kun oldin maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari hamda malaka oshirish ta'lim muassasalariga taqdim etib borsin;

tizimdagi ta'lim tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarning malaka oshirish kurslariga o'z vaqtida va to'liq jalb qilinishini ta'minlasin;

nodavlat maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari, texnikumlar bilan hamkorlikda ishlab, ularning pedagog xodimlarini tashkil etilgan malaka oshirish kurslariga jalb qilishni muvofiqlashtirib borsin.

6. Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, mutaxassis, pedagog xodimlarini menejerlik va malaka oshirish kurslariga jalb qilishda 6-ilovadagi yo'riqnoma talablariga amal qilinishi belgilansin.

7. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (A.Baxramov), A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov)ga 2026-yil:

1-yanvarga qadar malaka oshirish yo'nalishlarining o'quv reja va dasturlarini zaruratga ko'ra takomillashtirish va tasdiqlash;

1-martga qadar yangidan kiritilayotgan malaka oshirish yo'nalishlarining o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

1-apreldan boshlab yangidan kiritilayotgan yo'nalishlar bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilishini ta'minlash;

malaka oshirish rejasining bajarilishi nazoratini olib borish va har chorakda vazirlik rahbariyatiga axborot kiritish vazifalari yuklansin.

8. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova) maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanadigan kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkilotlari reyestriga kiritilgan oliy ta'lim muassasalari va nodavlat ta'lim tashkilotlari bilan vazirlik o'rtasida shartnomalar tuzilishi hamda talabnoma asosida hisob-kitoblarga muvofiq to'lovlarning amalga oshirilishini ta'minlasin.

9. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tegishli tizim tashkilotlar va muassasalariga yetkazsin.

10. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari A.Turdiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir

Toshkent sh.,
2025-yil "5"-dekabr,
456-son



E. Karimova

Davlat maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini 2026-yilda malaka oshirish kurslarida o'qitish
REJASI

T/r	Hudud nomi	Hududdagi jami maktabgacha va maktab ta'limi xodimlari soni	Jami malaka oshiradigan xodimlar soni*	Shundan:		Ta'lim tashkiloti bo'yicha:										Virtual kasbiy rivojlantirish tizimida (onlayn)
						Pedagogik mahorat markazlari		Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasi		Nodavlat ta'lim muassasalari		A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti		Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti		
				Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	47561	9814	1837	7977	1804	7644	0	0	0	0	33	42	0	170	121
2	Andijon viloyati	51639	10861	2214	8647	2169	7082	0	1100	0	0	45	40	0	250	175
3	Buxoro viloyati	39463	8253	2076	6177	2050	5967	0	0	0	0	26	35	0	0	175
4	Jizzax viloyati	31070	6493	1487	5006	1463	4071	0	700	0	0	24	33	0	130	72
5	Qashqadaryo viloyati	57908	12648	1529	11119	1504	9768	0	0	0	1000	25	33	0	118	200
6	Navoiy viloyati	24486	5986	1838	4148	1832	4026	0	0	0	0	6	20	0	82	20
7	Namangan viloyati	50678	10162	2814	7348	2788	6951	0	0	0	0	26	32	0	225	140
8	Samarqand viloyati	72905	14221	2157	12064	1936	10759	201	1025	0	0	20	31	0	199	50
9	Surxondaryo viloyati	41465	9175	413	8762	377	7516	0	0	0	1000	36	42	0	106	98
10	Sirdaryo viloyati	16765	3396	854	2542	837	2465	0	0	0	0	17	27	0	50	0
11	Toshkent viloyati	45152	9128	1716	7412	1697	6306	0	700	0	0	19	30	0	260	116
12	Farg'ona viloyati	67929	13755	3670	10085	3626	8529	0	1000	0	0	44	52	0	404	100
13	Xorazm viloyati	38769	8274	2812	5462	2788	5215	0	0	0	0	24	37	0	140	70
14	Toshkent shahar	38696	7238	1414	5824	0	0	254	1150	0	125	1160	2874	0	1500	175
Jami		624486	129404	26831	102573	24871	86299	455	5675	0	2125	1505	3328	0	3634	1512

*Izoh: Mazkur toifadagi xodimlar davomiyligi 100 soat bo'lgan malaka oshirish kursida o'qitiladi.

**Davlat maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini 2026-yilda malaka oshirish kurslarida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish
KO'RSATKICHLARI**

No	Yo'nalish nomi	Hududdagi jami xodimlar soni	Jami malaka oshiradigan xodimlar soni	Shundan:		Ta'lim tashkiloti bo'yicha:										Virtual kasbiy rivojlanirish tizimida (onlayn)
				Pedagogik mahorat markazlari		Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasi		Nodavlat ta'lim muassasi		A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti		Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti				
				Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	
Maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari																
1	Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari	14666	2980	0	2980	0	2782	0	0	0	0	0	198	0	0	0
2	Umumiy o'rta ta'lim maktabi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari	13093	2678	0	2678	0	2505	0	0	0	0	0	173	0	0	0
3	Maktab maslahatchisi	4656	872	0	872	0	725	0	0	0	0	0	147	0	0	0
4	O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari (Ona tili va adabiyoti)	41483	8909	3114	5795	2986	5054	0	450	0	50	128	241	0	0	0
5	Qoraqalpoq tili va adabiyoti o'qituvchilari	1833	405	155	250	155	250	0	0	0	0	0	0	0	0	0
6	Rus tili va adabiyoti (rus sinflarda) o'qituvchilari	4292	865	129	736	129	561	0	50	0	125	0	0	0	0	0
7	Tojik tili va adabiyoti o'qituvchilari	440	80	15	65	15	65	0	0	0	0	0	0	0	0	0
8	Qirg'iz tili va adabiyoti o'qituvchilari	60	21	0	21	0	21	0	0	0	0	0	0	0	0	0
9	Qozoq tili va adabiyoti o'qituvchilari	650	125	0	125	0	125	0	0	0	0	0	0	0	0	0
10	Turkman tili va adabiyoti o'qituvchilari	111	25	0	25	0	25	0	0	0	0	0	0	0	0	0
11	Ingiliz tili o'qituvchilari	50111	10492	3399	7093	2927	4785	201	1000	0	650	271	658	0	0	0
12	Nemis tili o'qituvchilari	1608	297	51	246	51	246	0	0	0	0	0	0	0	0	0
13	Fransuz tili o'qituvchilari	1129	241	50	191	50	166	0	25	0	0	0	0	0	0	0
14	Rus tili (o'zbek va qardosh tillardagi sinflarda) o'qituvchilari	32737	6734	1816	4918	1726	4387	0	275	0	0	90	256	0	0	0
15	Davlat (o'zbek) tili o'qituvchilari	5144	1050	327	723	251	596	0	0	0	0	76	127	0	0	0
16	Davlat (qoraqalpoq) tili o'qituvchilari	974	200	50	150	50	150	0	0	0	0	0	0	0	0	0
17	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (o'zbek sinflarda)	104172	21644	6459	15185	6205	12782	254	1753	0	650	0	0	0	0	0
18	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (qoraqalpoq sinflarda)	3047	601	175	426	175	426	0	0	0	0	0	0	0	0	0
19	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (rus sinflarda)	5971	1250	200	1050	200	775	0	275	0	0	0	0	0	0	0
20	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (tojik)	822	150	25	125	25	125	0	0	0	0	0	0	0	0	0
21	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (qirg'iz)	146	52	0	52	0	52	0	0	0	0	0	0	0	0	0
22	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (qozoq sinflarda)	1169	275	50	225	50	225	0	0	0	0	0	0	0	0	0
23	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (turkman sinflarda)	265	50	25	25	25	25	0	0	0	0	0	0	0	0	0
24	Kimyo o'qituvchilari	14463	3105	929	2176	794	2053	0	0	0	0	135	123	0	0	0
25	Biologiya o'qituvchilari	19476	3983	1130	2853	999	2702	0	0	0	0	131	151	0	0	0
26	Geografiya o'qituvchilari	13910	2894	810	2084	783	2003	0	0	0	0	27	81	0	0	0
27	Fizika o'qituvchilari	16291	3273	854	2419	721	2266	0	0	0	0	133	153	0	0	0
28	Tabiiy fan o'qituvchilari	100	52	25	27	25	27	0	0	0	0	0	0	0	0	0
29	Matematika o'qituvchilari	42363	9007	2449	6558	2122	5308	0	600	0	350	327	300	0	0	0
30	Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari	19376	4098	780	3318	750	2510	0	350	0	300	30	158	0	0	0
31	Tarix o'qituvchilari	21868	4636	1282	3354	1252	2765	0	475	0	0	30	114	0	0	0
32	Davlat va huquq asoslari o'qituvchilari	7075	1303	307	996	307	945	0	0	0	0	0	51	0	0	0
33	Musiqi madaniyati o'qituvchilari	9682	2042	416	1626	390	1576	0	0	0	0	26	50	0	0	0
34	Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilari	10122	2079	353	1726	353	1651	0	75	0	0	0	0	0	0	0
35	Texnologiya fani o'qituvchilari	19515	4027	900	3127	900	2952	0	175	0	0	0	0	0	0	0
36	Iqtisodiy bilim asoslari o'qituvchilari	2746	565	52	513	52	484	0	0	0	0	0	29	0	0	0

37	Tarbiya fani o'qituvchilari	8491	1769	377	1392	350	1360	0	0	0	0	27	32	0	0	0
38	Umumta'lim maktab kutubxona rahbar va xodimlari	10522	2192	1	2191	1	2105	0	0	0	0	0	86	0	0	0
39	"Kelajak markazi" to'garak rahbarlari	5766	1205	0	1205	0	1155	0	0	0	0	0	50	0	0	0
40	Umumta'lim maktablari amaliyotchi psixologlari	10566	2306	27	2279	27	2105	0	122	0	0	0	52	0	0	0
41	O'qituvchi-logoped	1492	315	0	315	0	265	0	50	0	0	0	0	0	0	0
42	Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun maktablar va maktab internatlari texnologiya o'qituvchilari	46	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
43	Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun maktablar va maktab internatlari tarbiyachilari	262	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
44	San'at (ART) fani o'qituvchilari	425	62	44	18	0	0	0	0	0	0	44	18	0	0	0
45	Texnologiya (robototexnika va sun'iy intellekt) fani o'qituvchilari	292	55	30	25	0	0	0	0	0	0	30	25	0	0	0
46	Prezident maktablarining zamonaviy yondashuv (Global Perspectives) fani o'qituvchilari	26	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
47	Science/ Combined Science (Kembrij) fani o'qituvchilari	30	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
48	Tarbiyachi	0	55	0	55	0	0	0	0	0	0	0	55	0	0	0
Jami		523484	109019	26806	82213	24846	71085	455	5675	0	2125	1505	3328	0	0	0
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari</i>																
49	Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosarlari	5621	1103	0	1103	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1103	0
50	Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologlari	3801	762	0	762	0	0	0	0	0	0	0	0	0	762	0
51	Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'qituvchi-defektologlari	303	26	0	26	0	0	0	0	0	0	0	0	0	26	0
52	Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'qituvchi-logopedlari	2356	447	0	447	0	0	0	0	0	0	0	0	0	447	0
53	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari	66738	13755	0	13755	0	12830	0	0	0	0	0	0	0	925	0
54	Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbarlari	8765	1626	0	1626	0	1380	0	0	0	0	0	0	0	246	0
55	Maktabgacha ta'lim tashkiloti oshpazlar	7492	1512	0	1512	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1512
56	Maktabgacha ta'lim tashkiloti xorijiy til o'qituvchisi	5926	1154	25	1129	25	1004	0	0	0	0	0	0	0	125	0
Jami		101002	20385	25	20360	25	15214	0	0	0	0	0	0	0	3634	1512
Jami		624486	129404	26831	102573	24871	86299	455	5675	0	2125	1505	3328	0	3634	1512

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ta'lim muassasalari xodimlarini
2026-yilda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarida o'qitish
KO'RSATKICHLARI

T/r	Hudud nomi	Hududdagi jami xodimlar soni	2026-yilda jami malaka oshiradigan xodimlar soni	Shundan:		Ta'lim tashkiloti bo'yicha			
						Pedagogik mahorat markazida		A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida	
				Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	794	163	88	75	61	37	27	38
2	Andijon viloyati	728	159	93	66	56	30	37	36
3	Buxoro viloyati	588	128	68	60	44	29	24	31
4	Jizzax viloyati	543	119	71	48	53	18	18	30
5	Qashqadaryo viloyati	609	134	75	59	51	27	24	32
6	Navoiy viloyati	272	62	31	31	25	13	6	18
7	Namangan viloyati	626	133	83	50	63	25	20	25
8	Samarqand viloyati	607	129	70	59	56	33	14	26
9	Surxondaryo viloyati	765	160	86	74	55	36	31	38
10	Sirdaryo viloyati	411	102	62	40	46	20	16	20
11	Toshkent viloyati	534	112	68	44	49	20	19	24
12	Farg'ona viloyati	891	188	118	70	82	24	36	46
13	Xorazm viloyati	542	126	75	51	53	23	22	28
14	Toshkent shahar	323	109	58	51	0	0	58	51
Jami		8233	1824	1046	778	694	335	352	443

**Boshqa vazirliklar va idoralar tasarrufidagi maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari pedagog xodimlarini
2026-yilda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarida o'qitish
KO'RSATKICHLARI**

T/r	Hudud nomi	Hududdagi jami xodimlar soni	2025-yilda jami malaka oshiradigan xodimlar soni	Sport vazirligi	Madaniyat vazirligi	Badiiy akademiya	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
				<i>Maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari</i>	<i>Maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari</i>	<i>Maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari</i>	<i>Kasbiy ta'lim tashkilotlari (texnikumlar) xodimlari</i>
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	665	131	8	10	3	113
2	Andijon viloyati	1031	230	35	31	5	164
3	Buxoro viloyati	821	201	60	21	13	120
4	Jizzax viloyati	271	48	5	4	7	39
5	Qashqadaryo viloyati	377	105	16	18	0	71
6	Navoiy viloyati	464	101	30	3	10	68
7	Namangan viloyati	709	111	22	5	2	84
8	Samarqand viloyati	730	154	15	4	5	135
9	Surxondaryo viloyati	467	89	14	6	3	69
10	Sirdaryo viloyati	384	107	5	1	8	101
11	Toshkent viloyati	813	173	13	10	0	150
12	Farg'ona viloyati	898	304	0	17	3	287
13	Xorazm viloyati	555	175	33	5	0	137
14	Toshkent shahar	321	117	13	44	28	60
Jami		8506	2046	269	179	87	1598

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda texnikumlar direktorlarini 2026-yilda menejerlik kurslarida o'qitish
REJASI

T/r	Hududlar nomi	Jami malaka oshiradiganlar soni	Shundan:			
			Maktab direktorlari*	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari**	"Kelajak" markazlari direktorlari*	Kasbiy ta'lim tashkilotlari (texnikumlar) direktorlari*
Respublika bo'yicha		4308	2000	1500	208	600
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	312	145	105	17	45
2.	Andijon viloyati	341	150	120	16	55
3.	Buxoro viloyati	263	105	110	13	35
4.	Jizzax viloyati	205	110	52	13	30
5.	Qashqadaryo viloyati	413	240	102	16	55
6.	Navoiy viloyati	161	75	50	11	25
7.	Namangan viloyati	339	140	135	14	50
8.	Samarqand viloyati	487	250	166	16	55
9.	Surxondaryo viloyati	355	190	100	15	50
10.	Sirdaryo viloyati	146	65	45	11	25
11.	Toshkent viloyati	372	170	125	22	55
12.	Farg'ona viloyati	469	190	200	19	60
13.	Xorazm viloyati	233	100	80	13	40
14.	Toshkent shahar	212	70	110	12	20

Izoh: * A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida davomiyligi 144 soat bo'lgan menejerlik kursida o'qitiladi.

** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida davomiyligi 144 soat bo'lgan menejerlik kursida o'qitiladi.

**Nodavlat maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari pedagog xodimlarining 2026-yilda malaka oshirish kurslarida o'qitish
REJASI**

T/r	Hudud nomi	Hududdagi jami maktabgacha va maktab ta'limi xodimlari soni	Jami malaka oshiradigan xodimlar soni*	Shundan:		Ta'lim tashkiloti bo'yicha:				
						Pedagogik mahorat markazlarida		A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti	Nodavlat ta'lim muassasalari**	"Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturi orqali** (onlayn)
						Maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari	Maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari	
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2169	382	12	370	12	70	0	0	300
2	Andijon viloyati	8559	1250	100	1150	100	200	0	0	950
3	Buxoro viloyati	302	746	19	727	19	27	0	0	700
4	Jizzax viloyati	2281	918	68	850	68	400	0	0	450
5	Qashqadaryo viloyati	1230	1175	100	1075	99	25	0	0	1050
6	Navoiy viloyati	522	325	25	300	25	50	0	0	250
7	Namangan viloyati	398	1129	50	1079	50	29	0	0	1050
8	Samarqand viloyati	6469	2481	155	2326	155	1226	0	0	1100
9	Surxondaryo viloyati	4340	600	0	600	0	0	0	0	600
10	Sirdaryo viloyati	1153	425	0	425	0	225	0	0	200
11	Toshkent viloyati	2230	846	85	761	85	361	0	0	400
12	Farg'ona viloyati	6883	1109	61	1048	61	78	0	0	970
13	Xorazm viloyati	3114	480	11	469	11	89	0	0	380
14	Toshkent shahar	411	605	55	550	0	0	55	450	100
Jami		40061	12471	741	11730	686	2780	55	450	8500

*Izoh

*Mazkur toifadagi xodimlar davomiyligi 100 soat bo'lgan malaka oshirish kursida o'qitiladi.

**Nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan malaka oshirish kurslari tashkil etilmaganda ushbu pedagog xodimlar kalendar yilining IV choragida "Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturi orqali tashkil etilgan malaka oshirish kurslariga o'qishiga ruxsat etiladi.

**Nodavlat maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari pedagog xodimlarining 2026-yilda malaka oshirish kurslarida o'qitish
KO'RSATKICHLARI**

	Yo'nalish nomi	Hududdagi jami xodimlar soni	Jami malaka oshiradigan xodimlar soni	Shundan:		Ta'lim tashkiloti bo'yicha:					
				Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Pedagogik mahorat markazlari		A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti		Nodavlat ta'lim muassasasi	Virtual kasbiy rivojlantirish tizimida (onlayn)
						Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Oliy va birinchi toifalilar	Boshqalar	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari	
Maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari											
1	Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari	225	20	2	18	2	15	0	3	0	0
2	Umumiy o'rta ta'lim maktabi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari	120	10	1	9	1	6	0	3	0	0
3	Maktab maslahatchisi	16	3	1	2	1	2	0	0	0	0
4	O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari (Ona tili va adabiyoti)	493	64	23	41	22	40	1	1	0	0
5	Qoraqalpoq tili va adabiyoti o'qituvchilari	2	0	0	0	0	0	0	0	0	0
6	Rus tili va adabiyoti (rus sinflarda) o'qituvchilari	194	13	4	9	4	9	0	0	0	0
7	Tojik tili va adabiyoti o'qituvchilari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
8	Qirg'iz tili va adabiyoti o'qituvchilari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
9	Qozoq tili va adabiyoti o'qituvchilari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
10	Turkman tili va adabiyoti o'qituvchilari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
11	Ingliz tili o'qituvchilari	842	107	47	60	43	54	4	6	0	0
12	Nemis tili o'qituvchilari	3	0	0	0	0	0	0	0	0	0
13	Fransuz tili o'qituvchilari	4	0	0	0	0	0	0	0	0	0
14	Rus tili (o'zbek va qardosh tillardagi sinflarda) o'qituvchilari	397	52	23	29	23	28	0	1	0	0
15	Davlat (o'zbek) tili o'qituvchilari	45	6	2	4	2	2	0	2	0	0
16	Davlat (qoraqalpoq) tili o'qituvchilari	20	0	0	0	0	0	0	0	0	0
17	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (o'zbek sinflarda)	887	108	49	59	49	59	0	0	0	0
18	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (qoraqalpoq sinflarda)	8	1	0	1	0	1	0	0	0	0
19	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (rus sinflarda)	370	16	3	13	3	13	0	0	0	0
20	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (tojik sinflarda)	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
21	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (qirg'iz sinflarda)	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
22	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (qozoq sinflarda)	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
23	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (turkman sinflarda)	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
24	Kimyo o'qituvchilari	328	30	6	24	6	21	0	3	0	0
25	Biologiya o'qituvchilari	359	36	9	27	9	24	0	3	0	0

26	Geografiya o'qituvchilari	161	15	4	11	4	8	0	3	0	0
27	Fizika o'qituvchilari	296	32	5	27	4	25	1	2	0	0
28	Tabiiy fan o'qituvchilari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
29	Matematika o'qituvchilari	617	75	22	53	22	50	0	3	0	0
30	Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari	349	35	7	28	6	26	1	2	0	0
31	Tarix o'qituvchilari	331	46	14	32	12	30	2	2	0	0
32	Davlat va huquq asoslari o'qituvchilari	94	8	1	7	1	5	0	2	0	0
33	Musiqa madaniyati o'qituvchilari	104	12	2	10	2	7	0	3	0	0
34	Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilari	121	9	1	8	1	8	0	0	0	0
35	Texnologiya fani o'qituvchilari	133	13	2	11	2	11	0	0	0	0
36	Iqtisodiy bilim asoslari o'qituvchilari	24	1	0	1	0	0	0	1	0	0
37	Tarbiya fani o'qituvchilari	87	8	2	6	1	4	1	2	0	0
38	Umumta'lim maktab kutubxona rahbar va xodimlari	42	7	1	6	1	6	0	0	0	0
39	"Kelajak markazi" to'garak rahbarlari	1	2	1	1	1	1	0	0	0	0
40	Umumta'lim maktablari amaliyotchi psixologlari	95	7	1	6	1	6	0	0	0	0
41	O'qituvchi-logoped	14	1	0	1	0	1	0	0	0	0
42	Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun maktablar va maktab internatlari texnologiya o'qituvchilari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
43	Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun maktablar va maktab internatlari tarbiyachilari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
44	San'at (ART) fani o'qituvchilari	4	2	0	2	0	0	0	2	0	0
45	Texnologiya (robototexnika va sun'iy intellekt) fani o'qituvchilari	10	1	0	1	0	0	0	1	0	0
46	Prezident maktablarining zamonaviy yondashuv (Global Perspectives) fani o'qituvchilari	2	0	0	0	0	0	0	0	0	0
47	Science/ Combined Science (Kembrij) fani o'qituvchilari	4	0	0	0	0	0	0	0	0	0
Jami		6802	741	233	508	223	463	10	45	0	0
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari											
48	Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosarlari	449	16	0	16	0	16	0	0	0	0
49	Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologlari	136	4	0	4	0	4	0	0	0	0
50	Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'qituvchi-defektologlari	77	4	0	4	0	4	0	0	0	0
51	Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'qituvchi-logopedlari	119	10	0	10	0	10	0	0	0	0
52	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari	31185	11673	450	11223	0	2723	0	0	450	8500
53	Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbarlari	417	13	0	13	0	13	0	0	0	0
54	Maktabgacha ta'lim tashkiloti oshpazlar	234	4	0	4	0	4	0	0	0	0
55	Maktabgacha ta'lim tashkiloti xorijiy til o'qituvchisi	642	6	0	6	0	6	0	0	0	0
Jami		33259	11730	450	11280	0	2780	0	0	450	8500
Jami		40061	12471	683	11788	223	3243	10	45	450	8500

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari
direktorligiga nomzodlarni 2026-yilda menejerlik kurslarida o'qitish
KO'RSATKICHLARI

T/r	Hududlar nomi	Jami malaka oshiradiganlar soni	Shundan:	
			Maktab direktorligiga nomzodlar	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorligiga nomzodlar
	Respublika bo'yicha	2500	1500	1000
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	171	105	66
2.	Andijon viloyati	195	115	80
3.	Buxoro viloyati	153	80	73
4.	Jizzax viloyati	119	85	34
5.	Qashqadaryo viloyati	253	185	68
6.	Navoiy viloyati	88	55	33
7.	Namangan viloyati	193	100	93
8.	Samarqand viloyati	303	190	113
9.	Surxondaryo viloyati	206	140	66
10.	Sirdaryo viloyati	78	45	33
11.	Toshkent viloyati	213	130	83
12.	Farg'ona viloyati	272	140	132
13.	Xorazm viloyati	133	80	53
14.	Toshkent shahar	123	50	73

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilari, mutaxassis xodimlari va metodistlarini
2026-yilda malaka oshirish kurslarida o'qitish
KO'RSATKICHLARI**

T/r	Hudud nomi	Jami malaka oshiradigan xodimlar soni	Malaka oshirish kurslarida jalb qilinadigan professor-o'qituvchilar	Malaka oshirish kurslarida jalb qilinadigan mutaxassis xodimlar	Malaka oshirish kurslarida jalb qilinadigan metodistlar	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
1	2	3	4	5	6	7
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	24	10	8	6	0
2	Andijon viloyati	22	10	7	5	0
3	Buxoro viloyati	22	10	7	5	0
4	Jizzax viloyati	18	5	7	6	0
5	Qashqadaryo viloyati	23	10	7	6	0
6	Navoiy viloyati	17	5	7	5	0
7	Namangan viloyati	22	10	7	5	0
8	Samarqand viloyati	22	10	7	5	0
9	Surxondaryo viloyati	22	10	7	5	0
10	Sirdaryo viloyati	17	5	7	5	0
11	Toshkent viloyati	23	10	8	5	0
12	Farg'ona viloyati	23	10	7	6	0
13	Xorazm viloyati	23	10	7	6	0
14	Toshkent shahar	32	10	7	5	10
Jami		310	125	100	75	10

Izoh: Kasbiy rivojlantirish kurslari A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 5 ”-dekabrdagi 456-son
buyrug‘iga
5-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish va menejerlik kurslariga jalb qilish bo‘yicha

YO‘RIQNOMA

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo‘riqnoma davlat maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini (keyingi o‘rinlarda – xodimlar) ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish va menejerlik kurslariga jalb qilish qoidalarini belgilaydi.

2. Yo‘riqnomaning maqsadi malaka oshirish va menejerlik kurslariga xodimlarni tasdiqlangan reja asosida, ehtiyojdan kelib chiqib maqsadli jalb qilishni tashkil etish hisoblanadi.

3. Har bir xodim 5 yilda kamida bir marotaba malaka oshirishga jalb qilinishi shart.

4. Xodimlarni malaka oshirish va menejerlik kursiga jalb qilish ish beruvchining buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

5. Mazkur yo‘riqnoma 2026-yil 1-yanvardan boshlab amal qiladi.

II. Umumta’lim maktablarining direktorlarini menejerlik kurslariga jalb qilish

6. Menejerlik o‘quv kurslariga umumta’lim maktablarining direktorlari hududlar bo‘yicha quyidagi ustuvorlik asosida jalb qilinadi:

a) vazirlik tomonidan ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan deb topilgan (oxirgi tasdiqlangan ro‘yxat asosida) umumta’lim maktablarining direktorlari;

b) direktor lavozimida ish staji eng ko‘p bo‘lgan (oxirgi tayinlangan muddati asosida) maktab direktorlari;

v) o‘quvchilar o‘rtasida jinoyatchilik mavjud bo‘lgan (kalendar yili bo‘yicha oxirgi ko‘rsatkichlar asosida) maktablarning direktorlari;

g) o‘z tashabbusiga ko‘ra menejerlik o‘quv kurslarida o‘qish istagini bildirgan umumta’lim maktab direktorlari.

III. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktorlarini menejerlik kurslariga jalb qilish

7. Menejerlik o'quv kurslariga maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktorlari hududlar bo'yicha quyidagi ustuvorlik asosida jalb qilinadi:

a) oxirgi besh yilda malaka oshirmagan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari;

b) direktor lavozimida ish staji eng ko'p bo'lgan (oxirgi tayinlangan muddati asosida, rotatsiya qilinganda avvalgi ish staji ham inobatga olinadi) maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari;

v) oliy ma'lumotli pedagoglar salmog'i yuqori bo'lmagan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktorlari;

g) ta'lim-tarbiya jarayonida salbiy holatlar qayd etilgan (tarbiyalanuvchilarning salomatligi va xavfsizligi bilan bog'liq) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktorlari;

d) vazirlik tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va tarbiyalanuvchilari o'rtasida respublika, viloyat va tuman (shahar) miqyosida tashkil etilgan tanlovlar, musobaqalarda umuman natija qayd etmagan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktorlari;

e) belgilangan quvvatiga nisbatan past koeffitsiyentda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari;

j) o'z tashabbusiga ko'ra menejerlik o'quv kurslarida o'qish istagini bildirgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktorlari.

IV. Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari pedagog va mutaxassis xodimlarini malaka oshirish kurslariga jalb qilish

8. Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarining pedagog va mutaxassis xodimlari ta'lim tashkiloti bo'yicha quyidagi ustuvorlik asosida jalb qilinadi:

a) oxirgi 5 yilda malaka oshirmagan pedagog va mutaxassis xodimlar;

b) navbatdagi attestatsiya natijalariga ko'ra malaka toifasi pasaygan pedagog xodimlar;

v) navbatdagi attestatsiya natijalariga ko'ra malaka toifasi o'zgarmagan pedagog xodimlar;

g) malaka toifasiga ega bo'lmagan pedagog xodimlar;

d) bir yil va undan ortiq muddat pedagogik faoliyat bilan shug'ullanmagan pedagog xodimlar;

e) o'z tashabbusiga ko'ra malaka oshirish kurslarida o'qish istagini bildirgan pedagog va mutaxassis xodimlar;

i) yuqoridagi toifaga kirmagan boshqa pedagog va mutaxassis xodimlar.

V. Xodimlarni malaka oshirish va menejerlik kurslariga yuborishni rejalashtirish

9. Xodimlarning malaka oshirganlik holati tahlil qilinadi hamda yo‘riqnomaga muvofiq ketma ketlikda malaka oshirish ro‘yxati ishlab chiqiladi.

10. Navbatdagi kalendar yil uchun malaka oshirishga yuboriladigan xodimlar ro‘yxati (hududdagi jami xodimlar sonining kamida 20 foizi miqdorida) tasdiqlanadi.

11. Malaka oshirish muddati kelganda xodim ish beruvchining buyrug‘i bilan malaka oshirishga yuboriladi.

VI. Yakuniy qoidalar

12. Belgilangan mezonlarning dastlabkisi bo‘yicha xodimlarning ko‘rsatkichlari teng kelganda ustuvorlik navbatdagi mezon bo‘yicha ko‘rib chiqiladi.

13. Menejerlik o‘quv kurslari va malaka oshirish kurslariga jalb qilinishi belgilangan, biroq uzrli sabablarga ko‘ra kurslariga bora olmagan xodimlar to‘g‘ridan to‘g‘ri keyingi oydagi kurslariga jalb qilinadi.